

KIMYO FANLARINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Jumayeva Shoiraxan Baxshulloyeva

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

50-maktab kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars jarayonlarida qo'llanadigan "SWOT-tahlil", "FSMU", "Assisment" interaktiv metodlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi mahorati, interaktiv metodlar, "SWOT-tahlil", "FSMU", "Assisment" metodi, ijodkorlik, nutq o'rnatish, maqsad, natija.

O'zbekiston Respublikasining - Ta'lim to'g'risidagi qonunida ta'kidlanganidek, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, o'quvchilarga chuqur bilim berish ta'limning asosiy vazifasidir. Yuksak ma'naviyatli, ma'rifatli yoshlarni tarbiyalash va ularga mustahkam bilim berish biz pedagoglar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda jahon maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topmoqda. Bu esa o'qituvchidan katta mahorat talab etadi. Har bir fan o'qituvchisi oldiga qo'yilgan maqsad va natijaga erishish uchun dars texnologiyasini to'g'ri tashkillashtirishi kerak.

Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir.

Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining zimmasidagi vazifa esa, o'quvchilarga aniq yo'naltirish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, to'xtatmaydi va ular o'rtasida doimiy faollik ta'minlanadi.

"SWOT-tahlil" metodi. Ushbu metoddan mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'larini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength) • kuchli tomonlari

W – (weakness) • zaif, kuchsiz tomonlari

O – (opportunity) • imkoniyatlari

T – (threat) • to'siqlar

Ф	• фикрингизни баён этинг
С	• фикрингизни баёнига сабаб кўрсатинг
М	• кўрсатган сабабингизни исботлаб мисол келтиринг
У	• фикрингизни умумлаштиринг

F •fikringizni bayon eting

S •fikringizni bayoniga sabab ko'rsating

M •ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring

U •fikringizni umumlashtiring

“FSMU” metodi. Mazkur metod o‘quvchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, o‘quvchida mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi quyidagicha:

- Qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa taklif etiladi;
- Har bir ishtirokchiga metodning bosqichlari yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi;

“Assesment” metodi mazkur metod ta‘lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta‘lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar(test, amaliy ko‘nikmalar, muommoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

“Assesment”lardan ma‘ruza mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma‘lumotlarni bayon qilishda, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma‘lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritishi mumkin. Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

"Muammo" texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi: O'quvchilarga o'quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatish.

"Blits-so'rov" usuli Usulning tavsifi: Ushbu usul o'quvchilarni harakatlar ketma-krtligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan fani asosida xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan keraklisini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, o'zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini o'tkaza olish hamda o'z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o'rgatishga qaratilgan.

Usulning maqsadi: ushbu usul orqali o'quvchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan ham fikr bo'la olish kabi ko'nikmalarni shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Talim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O.,quv qo.,llanma. Mualliflar: Ishmuhammedov R., Yuldashev M. -T., 2013.
2. Umumta'lim fanlar metodikasi. Jurnal 2018 yil 3-son
3. Омонов Н.Т. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат / – Т.: “Иқтисод–мoliya”. 2009.
4. Tolipov O'., No'monova N.Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.G'G' Xalq ta'limi.-Toshkent,